

XALQARO TASHKILOTLARNING GLOBAL INQIROZLARNI BOSHQARISHDAGI ROLI

Mirzabekova Ruxsora Ilxam qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi
ruhsoramirzabekovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro tashkilotlarning global siyosiy jarayonlardagi roli va ularning siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro tashkilotlarning asosiy vazifalari, asosiy mexanizmlari va globallashuv jarayonidagi ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlar global siyosiy barqarorlikni ta'minlash, umumiy xalqaro muammolarga hamjihatlikda yechim topish, nizolarni oldini olish va mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim vosita ekanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqolada BMT, Yevropa Ittifoqi, JSST, JST, NATO kabi yetakchi institutlar faoliyati nazariy yondashuvlar (Keohane, Nye va Krasner) va amaliy misollar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: global inqiroz, BMT, Yevropa Ittifoqi, JSST, JST, NATO, hamkorlik, Yevropa Kengashi, Parij kelishuvi, Orol dengizi inqirozi, Xalqaro Valyuta Fondi, moliyaviy yordam, pandemiyalar, a'zo davlatlar, Afg'oniston, xalqaro tashkilotlar, xalqaro institutlar

Abstract. This article analyzes the role of international organizations in global political processes and examines their political, economic, environmental, and social significance. The main functions and mechanisms of international organizations, as well as their impact in the context of globalization, are explored. The research findings demonstrate that international organizations serve as important instruments in ensuring global political stability, jointly addressing common international problems, preventing conflicts, and promoting cooperation among states. In addition, the article analyzes the activities of leading institutions such as the United Nations, the European Union, the World Health Organization, the World Trade Organization, and NATO through theoretical approaches (Keohane, Nye, and Krasner) and practical examples.

Keywords: global crisis, United Nations, European Union, World Health Organization, World Trade Organization, NATO, cooperation, European Council, Paris Agreement, Aral Sea crisis, International Monetary Fund, financial assistance, pandemics, member states, Afghanistan, international organizations, international institutions

Аннотация. В данной статье анализируется роль международных организаций в глобальных политических процессах, а также рассматривается их политическое, экономическое, экологическое и социальное значение. Изучаются





основные функции и механизмы международных организаций, а также их влияние в условиях глобализации. Результаты исследования показывают, что международные организации являются важным инструментом обеспечения глобальной политической стабильности, совместного решения общих международных проблем, предотвращения конфликтов и развития сотрудничества между государствами. Кроме того, в статье анализируется деятельность таких ведущих институтов, как Организация Объединённых Наций, Европейский союз, Всемирная организация здравоохранения, Всемирная торговая организация и НАТО, на основе теоретических подходов (Киухейн, Най и Краснер) и практических примеров.

Ключевые слова: *глобальный кризис, Организация Объединённых Наций, Европейский союз, Всемирная организация здравоохранения, Всемирная торговая организация, НАТО, сотрудничество, Европейский совет, Парижское соглашение, кризис Аральского моря, Международный валютный фонд, финансовая помощь, пандемии, государства-члены, Афганистан, международные организации, международные институты*

KIRISH

Global inqiroz — bu bir yoki bir nechta davlat doirasidan chiqib, butun xalqaro hamjamiyatga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, keng ko'lamli va murakkab muammolar majmuasidir. Bunday inqirozlar siyosiy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy yoki sog'liqni saqlash sohalarida yuzaga kelib, davlatlarning ichki barqarorligiga, mintaqaviy xavfsizlikka va global tizimning faoliyatiga tahdid soladi.

Global inqirozlarning asosiy xususiyati shundaki, ularni alohida davlatlar mustaqil ravishda bartaraf eta olmaydi; ular xalqaro hamkorlik, muvofiqlashtirilgan siyosat va xalqaro institutlarning faol ishtirokini talab etadi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchaygani sari global inqirozlarning ko'lami va ta'siri ham ortib bormoqda.

Masalan, moliyaviy inqirozlar xalqaro bozorlar orqali tez tarqaladi, pandemiyalar qisqa vaqt ichida dunyo miqyosida sog'liqni saqlash tizimlarini izdan chiqarad, iqlim o'zgarishi esa uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. Shuningdek, qurolli mojarolar, migratsiya oqimlari va energetik xavfsizlik muammolari ham global inqirozlarning muhim ko'rinishlari hisoblanadi. Shu sababli, global inqirozlar xalqaro munosabatlar tizimida muhim muammo sifatida namoyon bo'lib, xalqaro tashkilotlarning muvofiqlashtiruvchi, normativ va amaliy rolini kuchaytirishni taqozo etadi.



Ularning samarali boshqarilishi nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyatning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Aynan shunday vaziyatlarda xalqaro tashkilotlarning yordami katta, xalqaro tashkilotlar global inqirozlarni boshqarishda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi, moliyaviy yordam ko'rsatadi, masalan, Xalqaro Valyuta Fondi kabi, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun xalqaro tashkilotlar tavsiyalar beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida, davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib, xalqaro tashkilotlarning roli yanada ortib bormoqda. BMT, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Valyuta Fondi, Yevropa Ittifoqi, YUNESKO, YUNISEF kabi tashkilotlar siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida muhim global qarorlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning global siyosiy jarayonlardagi o'rni bo'yicha davlatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq me'yorlarini mustahkamlash, ekologik muammolarni hamjihatlikda bartaraf etish, pandemiyalar va kiberxavfsizlikka qarshi kurashish va migratsiya jarayonlarini boshqarish kabi dolzarb global masalalarga samarali yechim topishda faol ishtirok etadi.



Xalqaro tashkilotlarning global siyosiy jarayonlardagi o'rni bo'yicha olib borilgan izlanishlar ularning xalqaro munosabatlardagi qanchalik ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Masalan, J. Nye va R. Keohane tomonidan ilgari surilgan "kompleks o'zaro bog'liqlik" nazariyasiga ko'ra, globallashayotgan dunyoda davlatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy





aloqalar mustahkamligi, xalqaro tashkilotlarsiz ularni boshqarishni deyarli imkonsizdir. Bu g'oya xalqaro tashkilotlarning davlatlararo muloqotni muvofiqlashtirishni strategik ahamiyatini ta'kidlaydi.⁴ S. Krasner esa xalqaro institutlar xalqaro tizimlarning me'yori va qoidalari sababi davlatlarning xatti-harakatlarini cheklovchi va ularni muayyan yo'nalishga yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lishini aytadi. BMT faoliyati haqida yoritilgan tadqiqotlarda ushbu tashkilotning tinchlikni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishiga qarshi global harakatlarda asosiy o'rinni egallashi alohida ta'kidlangan.

Yevropa ittifoqi misolida, Yevropa davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikning samarali shakllari chuqur tahlil qilingan. Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari Yevropa Kengashi, Yevropa Komissiyasi, Parlamenti, Ittifoq Sudi, Markaziy Bankidan iborat bo'lib, yuqorida keltirilgan barcha sohalar bo'yicha samarali faoliyat olib boradi.

Masalan, Yevropa Kengashi (Europar Council) - umumiy siyosiy aniq bir yo'nalishni belgilaydi. Kengash davlat va hukumat rahbarlaridan iborat. Qonun chiqarmaydi, strategik qarorlar qabul qiladi, Kengash prezidenti 2,5 yilga saylanadi. Yevropa Komissiyasi (European Commission) esa qonun loyihalarini tayyorlaydi, taklif etadi. Qabul qilingan qonunlarning bajarilishini nazorat qilib boradi. Har bir a'zo davlatdan bittadan komissar tayinlanadi.

Yevropa Markaziy Banki esa yevropa valyutasini boshqaradi. Yevropa Ittifoqining xalqaro ahamiyati shundaki, Yevropa Ittifoqi xalqaro maydonda kuchli siyosiy aktor hisoblanadi. U tinchlikni saqlash, mojarolarni oldini olish va diplomatik muzokaralarda faol ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Uning targ'iboti, demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi kabi qadriyatlarni xalqaro darajada ilgari suradi va ularni tashqi siyosatning asosiga qo'yadi. D. Held va A. McGrew asarlarida xalqaro tashkilotlar globallashtirish jarayonining bosh harakatlanuvchi kuchi sifatida namoyon bo'lishini keltirib o'tadi.⁵

Mahalliy tadqiqotchilar, xususan O'zbekistonlik olimlar olib borgan ishlarda xalqaro tashkilotlarning Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli, ular ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni ham mustahkamlashi yoritilgan.

Shu jumladan, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) a'zo bo'lganidan beri, xavfsizlikka zamonaviy tahdid va tahlikalarga qarshi kurashish, Afg'onistonda barqarorlikka erishish va mamlakat iqtisodiyotini qayta tiklashtirish, ommaviy qirg'in quraollarini tarqatmaslik, ekologik muammolarini hal qilish, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumashatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va

⁴ "Power and Interdependence" by Robert Keohane and Joseph Nye

⁵ Friedrich-Ebert-Stiftung <https://library.fes.de/libalt/journals/swetsfulltext/10398564.pdf>



uni ilgari surish, turizmni rivojlantirish kabilar ko'p qirrali hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.⁶

Bugungi kunda O'zbekiston va BMT o'rtasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi aloqalar jadallashib bormoqda. Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yana bir dolzarb global masalaga aylangan Orol dengizi fojiasiga e'tiborini qaratdi va dunyo hamjamiyatini "ushbu ekologik ofatning

Markaziy osiyoda yashayotgan millionlab odamlar turmush tarziga halokatli ta'sirini kamaytirishga tabiiy, biologik mubozanatini saqlash" ga chorladi. 2019-yil 24-25-oktyabr kunlari mamlakatimizning tashabbusi bilan Nukusda BMT shafeligida yuqori darajadagi "Orolbo'yi - ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda 28 mamlakatdan tashrif buyurgan 250 nafar ishtirokchi, nufuzli xalqaro tashkilot rahbarlari va vakillari ham ishtirok etishdi.

Undan tashqari, bugungi kunda O'zbekiston BMT bilan hamkorlikda diniy bag'rikenglikni saqlash va mustahkamlashga, yoshlar hayotiga oid bo'lgan dolzarb masalalarni hal qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xalqaro tashkilotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning siyosiy ahamiyati haqida ma'lomt keltirsak, Birlashgan Millatlar Tashkilotlar global tinchlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida yetakchi o'rin tutadi.⁷ NATO esa xalqaro xavfsizlikni saqlash va terrorizmga qarshi kurashda strategik ittifoq sifatida faoliyat yuritmoqda.

Jahon Savdo Tashkiloti esa iqtisodiy tartibotlarni tartibga solish orqali davlatlar o'rtasida savdo aloqalarni muvofiqlashtiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti pandemiyalar davrida global sog'liqni saqlash siyosatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tashkilotlarning global siyosiy jarayonlariga ta'sir darajasini tahlil qilsak, misol uchun bir qancha davlatlar misolida ko'rsak, BMT va Yevropa Ittifoqi siyosiy va iqtisodiy jihatdan eng yuqori ta'sirga ega bo'lgan institutlar hisoblanadi. NATO esa harbiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi, JST esa iqtisodiy raqobatni tartibga solishda yetakchilik qiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'siri esa sog'liq siyosatini muvofiqlashtirishda o'rtacha baholanadi. Negaki, u tavsiya beruvchi va muvofiqlashtiruvchi tashkilot bo'lib, majburlov kuchiga ega emas. Yanada ochiqroq yoritiladigan bo'lsa, har bir davlat sog'liq siyosatini o'zi belgilaydi, shunda JSST faqat yo'naltiradi, lekin aralasha olmaydi. JSST byudjetining katta qismi tashkilotlar va davlatlarga bog'liqligi sababli, uning mustaqil siyosiy bosim o'tkazish imkoniyatini pasaytiradi.

⁶ Development of science <https://www.devos.uz/article.php?id=2536>

⁷ Understanding the UN <https://www.understandingtheun.org/>





Xalqaro tashkilotlarning asosiy cheklovi shundaki, ularning qarorlari ko'pincha tavsiya xarakteriga ega bo'lib, davlatlar ularni bajarishga majbur emas. Misol keltiradigan bo'lsam, 2019- yil oxirida Xitoyda COVID-19 virusi aniqlangach, jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) avvalo pandemiya xavfini baholashda ehtiyotkor va sekin pozitsiyani egalladi. Pandemiya rasman e'lon qilinishi 2020-yil mart oyiga to'g'ri keldi. Shu sababli, global miqyosda kechikkan muvofiqlashtirish virusning tez tarqalishiga olib keldi, avval ba'zi mamlakatlar dastlab ogohlantirishlarni jiddiy qabul qilmaydi.

Bu jarayon esa xalqaro tashkilotlarning, xususan JSST ning global muammolarni hal etishdag institutsional cheklovlarini va majburiy vakolatlar yetishmasligini yaqqol ko'rsatdi. Yoki, 2015-yildagi Parij kelishuvi BMT ning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) doirasida qabul qilingan. Bu jarayon BMT tomonidan muvofiqlashtirildi. Parij kelishuvi global iqlim o'zgarishini cheklash, asosan global harorat oshishini 2 gradusdan past darajada ushlab turishni maqsad qilgan edi, ammo muammo to'liq yechilmadi.

Bunga asosiy sabab, kelishuv majburiy sanksiyalarga ega emas, davlatlar o'z majburiyatlarini o'zi mustaqil belgilaydi. Ayrim yirik havoni ifloslantiruvchi davlatlar majburiyatlarni to'liq bajarmadi. Oqibatda, Parij kelishuvi iqlim o'zgarishiga qarshi global hamkorlikni kuchaytirgan bo'lsa-da, BMT ning majburiy ijro mexanizmlarining yo'qligi iqlim o'zgarishi muammosini samarali hal etishni cheklab qo'ydi.⁸

Xulosa.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsam, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida global inqirozlarning kengayib borishi tabiiy, shu bois, bugungi kunda ularni samarali boshqarishda xalqaro tashkilotlarning roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar kabi tahdidlar alohida davlatlar imkoniyatidan tashqariga chiqib, xalqaro hamjamiyatdan muvofiqlashtirilgan va kollektiv yondashuvni talab qilmoqda. Aynan shunday sharoitda xalqaro tashkilotlar davlatlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, umumiy me'yor va qoidalarni shakllantirish hamda global barqarorlikni ta'minlashda muhim institutlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

BMT, Yevropa Ittifoqi, JSST, JST, NATO va boshqa xalqaro institutlar global muammolarga yechim topishda muhim tashabbuslarni ilgari surayotgan bo'lsa-da, ularning faoliyati ko'pincha majburiy ijro mexanizmlarining cheklanganligi va a'zo davlatlar manfaatlarining turlicha bo'lishi bilan chegaralanmoqda. Yuqorida COVID-19 pandemiyasi va Parij kelishuvi misolida ko'rilganidek, xalqaro tashkilotlarning tavsiyaviy xarakterga ega qarorlari ayrim hollarda global inqirozlarni tez va samarali bartaraf etishda yetarli bo'lmay qolmoqda.

⁸ .UNFCCC <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>





Shunga qaramay, ushbu institutlarsiz global muammolarni muvofiqlashtirish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish deyarli imkonsizdir.

Shu bois, kelajakda xalqaro tashkilotlarning institutsional salohiyatini kuchaytirish, ularning qarorlarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda davlatlar o'rtasida ishonch va mas'uliyatni oshirish global inqirozlarni boshqarishda muhim omil bo'lib qoladi.

Xalqaro tashkilotlarning samarali faoliyati nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat barqarorligi va barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. "Power and Interdependence" by Robert Keohane and Joseph Nye
2. Development of science <https://www.devos.uz/article.php?id=2536>
3. Understanding the UN <https://www.understandingtheun.org/>
4. United nations in Uzbekistan <https://uzbekistan.un.org/uz/49740-orol-dengizi-mintaqasida-aholi-ehtiyojlarini-ijtimoiy-iqtisodiy-organish-boyicha-loyiha>
5. Ministere de l'Europe et des Affaires etrangeres
<https://www.diplomatie.gouv.fr/en/french-foreign-policy/climate-and-environment/the-fight-against-climate-change/2015-paris-climate-conference-cop21/>
6. UNFCCC <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>
7. Friedrich-Ebert-Stiftung <https://library.fes.de/libalt/journals/swetsfulltext/10398564.pdf>

